



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX FAKULTETI 4-BOSQICH TALABASI
G'ANIEVA DILNOZANING POLOTOLOFIYA FANIDAN YOZGAN**

REFERATI

1-MAVZU: POLITOLOGIYA FANI. UNING SIYOSIY FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA ROLI

REJA:

1. Politologiya fani, predmeti, maqsadi va vazifasi.
2. Siyosiy qarashlar va ta'limotlarning vujudga kelishi va rivojlanishi
3. Siyosiy jarayon. siyosiy tizim va demokratiya

1. Politologiya fani, predmeti, maqsadi va vazifasi.

Politologiya –siyosiy tafakkurning ilk ko'rinishi sifatida bundan deyarli 3000 yil avval paydo bo'ldi. Uning mustaqil fan sifatida shakllanishi esa XIXasr oxiriga to'g'ri keladi. **Politologiya** –so'zi yunoncha, ikkita so'z birikmasidan iborat. Rolis(polis) va logos (logos). Polis –davlat, hokimiyat, ijtimoiy hayot; Logos – uni o'rganish, ta'limot, ilm ma'nosida. Politologiya ijtimoiy – siyosiy fanlar tizimida muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda o'tgan asr 90-yillaridan boshlab o'rganila boshlandi. Politologiya fani predmeti, qonun va tushunchalari, uslubi, funksiyasi hamda hozirgi davrda bu fanni o'rganishni ahamiyati kabi masalalar diqqat-e'tiborda bo'lishligi lozim.

Bu fan jamiyatning siyosiy tizimi, siyosat, siyosiy jarayon, siyosiy hokimiyat, uning asosiy tarkibiy qismlari, davlat hokimiyati, siyosiy partiya va tashkilotlar. Harakatlar, siyosiy madaniyat va mafkura, xalqaro tizim va munosabatlarni o'rganadigan fandır.

Politologiya siyosatni, siyosiy hayot munosabatlari va jarayonlarni o'rganishga o'ziga xos xususiyati, maqsad va vazifalari borligi bilan farq qiladi. Siyosat – insoniyatni va ilm-fanni qiziqtirib kelgan an'anaviy soha hisoblanadi. Uni nafaqat politologiya, balki boshqa fan sohalari, xususan, falsafa, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, huquqshunoslik, tarix kabi fanlarni ham qiziqtirib kelgan va kelmoqda. Bu siyosatning murakkab va turli xil hodisalar bilan bog'liq boy iqtisodiy hodisa ekanligini ko'rsatadi. Siyosatga, jamiyatning boshqa ijtimoiy xodisalar singari, umumiy va o'ziga xos xususiyatlar, jihatlar xosdir. Bu siyosatni turli fanlar nuqtai nazaridan o'rganish inkoniyatini beradi. Ayni paytda yana shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan fanlar siyosat to'g'risida yaxlit, tugal tasavvurni bermaydi. Politologiya esa jamiyatning siyosat sohasi bilan bevosita bog'liqdir.

Siyosiy fanlar – politologiya, siyosiy falsafa, siyosiy iqtisod, xalqaro munosabatlarning siyosiy nazariyasi, geosiyosat, siyosiy tarix, siyosiy etika va siyosiy antropologiya va boshqa sohalarni o'z ichiga oladi.

Politologiya ob'ekti – siyosat, jamiyatning siyosiy sohasi.

Predmeti – siyosiy hokimiyatning qaror topishi, amal qilishi va o'zgarish qonuniyatlari tashkil etadi.

Politologiya fanining boshqa ijtimoiy fanlardan farqi shundaki, u jamiyatning siyosiy jarayonlari to'g'risida fikr yuritadi. Jamiyat hayotida siyosiy hokimiyat muhim o'rin tutadi. Jamiyatning siyosiy hokimiyati, davlat hokimiyatining mohiyati va tuzilishini aniqlash, uning jamiyatda taqsimlanishi hamda mexanizmlarini bilish Politologiya fanining muhim ob'ekti hisoblanadi. Siyosiy hokimiyatini kim, qaysi siyosiy yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan qanday maqsadlar, manfaatlar va tamoyillar tizimida amalga oshirilishi qiziqtiradi. Politologiya fani siyosiy hokimiyat, uni amalga oshirishda o'rnatilgan siyosiy rejim faoliyati doirasi, shuningdek muayyan guruhlar mavqei va munosabati, hokimiyat qamrovi, uni boshqarish usullarini aniqlab beradi.

Politologiya fanida etakchi o'rinni jamiyat siyosiy hayoti, uni harakatga keltiruvchi siyosiy tuzilmalar va mexanizmlar faoliyatini o'rganish egallaydi. Ya'ni, u asosiy e'tiborini siyosiy institutlarning asl mohiyatini tashkil etgan davlat, parlament, hukumat, siyosiy muassasalar va partiyalar rolini o'rganishga qaratadi.

Politologiya fani muayyan funksiyalarni amalga oshiradi. Politologiya metodologik, nazariy bilish, dunyoqarash, tarbiyalovchi, boshorat qilish va aksiologik funksiyalarni bajaradi.

Mustaqil O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni qaror topishi insonlardan siyosiy onglikni, siyosat va siyosiy hayotni chuqurroq idrok etishni, siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida politologiya fanini, siyosiy ta'limotlarni o'rganish hamda rivojlantirishga real imkoniyatni vujudga keltiradi. Shuning o'zi hozirgi vaqtda politologiya fani rolini oshib borishini talab etadi.

Politologiya fani oldida qanday vazifalar qo'yilgan? Bu vazifalar tubandagilardan iborat:

1. Respublikamiz Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek sobiq Ittifoqning tarqalishi bilan "Sovuq urush" munosabatlari birmuncha pasaydi.

Ammo davlatlar o'rtasidagi mojarolar va turli g'oyalar kurashi batamom barham topgani yo'q. Dunyoda yuz berayotgan siyosiy voqealarni politologiya nuqtai nazaridan tahlil qilish taqozo etiladi.

2. Jahon davlatlari va xalqaro tashkilotlar e'tiborini umumbasharish muammolarini hal qilishga safarbar etishda ham bu fanning alohida xizmati bor.

3. Hozirgi vaqtda jahonda siyosiy jarayonlar tez o'zgarib bormoqda. Bunday sharoitda ma'rifatli davlatlardan ongli faoliyat, oqilona siyosat yuritishni talab etadi. Bunday siyosatni ishlab chiqishda politologiya xizmati beqiyosdir.

4. Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning siyosiy madaniyatini yuqori darajada bo'lishga bog'liq. Siyosiy onglik, ma'naviy etuklik fuqarolarning jamiyat hayotida ijtimoiy faolligini rivojlantirishga yordam beradi. Siyosiy madaniyatni va siyosiy ongni shakllantirishda politologiya fanining ham mas'uliyati juda katta.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, politologiya jamiyat taraqqiyotining, xususan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning nazariy va amaliy vazifalarini, tamoyillarini ishlab chiqarishda ma'lum rol o'ynaydi. Bu fanlarning nazariy xulosalari jamiyat, davlat, shaxs hamda fuqarolar faoliyatini umummanfaatlariga safarbar etishga yordam beradi.

Politologiya fani jamiyatdagi siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar, siyosiy madaniyat, xalqaro tizimlar, uning mexanizmi, vositalari hamda amaliyotini o'rganishda muayyan qonunlarga tayanadi hamda amal qiladi.

Politologiya fani amal qiladigan qonunlar ko'lamini turli xil bo'lib, mamlakat ichki hayoti, mintaqaviy va xalqaro tizimlar, umumbashariy taraqqiyot sohalarini bilan bevosita dohlidordir. Siyosiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish, jamiyatda demokratiya, fikr va vijdon erkinligi tamoyillarini, gumaniz g'oyalari va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish¹ni nazarda tutadi. Politologiya ham boshqa fanlar kabi o'zining qonun va tushunchalarga ega.

Bu fan qonunlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. *Davlat hokimiyati va mamlakat ichki siyosiy hayotida amal qiladigan.*
2. *Xalqaro munosabatlarda amal qiladigan qonuniyatlar*

Ushbu qonuniyatlar Politologiyada qo'llanilgan tushunchalarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Shu fanning xususiy tushunchalari – siyosat, siyosiy hokimiyat, siyosiy partiya va tashkilot, siyosiy tizim, siyosiy rejim, siyosiy plyuralizm, siyosiy qadriyat, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy mafkura va boshqalar.

2. Politologiyaga yaqin tushunchalar – huquqiy davlat, huquqiy madaniyat, xususiy mulk, bozor iqtisodi, raqobat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy qatlam, murosa, harbiy-siyosiy ittifoq kabi.

3. Umumijtimoiy – gumanitar tushunchalar, jamiyat, aholi, xalq, erkinlik, huquq, madaniyat, taraqqiyot, tafakkur, silivizatsiya va boshqa.

Politologiya fanida keng foydalaniladigan uslub (metod)lar tubandagilardan iborat.

1 I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblar. Asarlar, 8-jild, 496-bet.

1. Dialektik uslub.
2. Qiyosiy taqqoslash uslubi.
3. Empirik-Sotsiologik uslub.
4. Siyosiy tahlil uslubidan foydalaniladi.

Politologiya ijtimoiy fanlar bilan uzviy aloqada bo'ladi. Politologiya ijtimoiy fanlarning ilmiy xulosalarini qanday bo'lsa, shundayligicha foydalanmasdan, balki, jamiyat, davlat va fuqarolar hayotida bo'ladigan siyosiy o'zgarishlar va ularning hokimiyatiga munosabatlarini hamda bu o'zgarishlarni amalga oshirish usullari, mehanizmlarini o'rganadi, siyosiy xulosa, amaliy takliflar beradi.

Politologiya tubandagi ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan bevosita aloqador: sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, huquqshunoslik, falsafa, tarix. Ana shu fanlardagi umumqoida va aniq voqea, xulosalardan foydalaniladi. Masalan, Sotsiologiya muayyan guruh ongi va madaniyatini, huquqshunoslik huquqiy ongi va madaniyatini, Politologiya esa siyosiy ongi va madaniyatini tahlil qiladi.

O'z navbatida yuqoridagi ijtimoiy-siyosiy fanlar ham politologiyaning nazariy va amaliy xulosalardan keng keng foydalaniladi.

Jumladan, "Falsafa"da siyosat ijtimoiy xodisa sifatida tafakkur qilinadi, jamiyat hayotida ro'y beradigan voqea-xodisalarda siyosatning ta'sir kuchi umumiy qonuniyat sifatida ifodalab beriladi.

Siyosiy muammolar, voqea-hodisalarning falsafiy jihatdan umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan nazariy qoida va xulosalar, falsafaga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlar "Politologiya" fani uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki politologiya fanida o'rganiladigan masalalar, xal qilinishi zarur bo'lgan vazifalar, avvalo "Falsafa" fanida ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu kabi holatlar "Politologiya"ning "Falsafa" bilan qanchalik bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

"Politologiya", "Iqtisodiyot nazariyasi" fani bilan ham o'zaro aloqada bo'ladi. Bunday aloqadorlik, avvalo, iqtisodiyotning siyosat bilan birligida yaqqol namoyon bo'ladi. Iqtisodiy qonunlarni ochish, ularning harakatidan foydalanish va shular asosida iqtisodiy sohadagi muammolarni hal etishda siyosatning roli va ahamiyati juda kattadir. Har qanday iqtisodiy o'zgarish siyosat sub'ektlarining nazariy va amaliy faoliyati muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat hayotida amalga oshiriladigan har bir iqtisodiy islohot dastlab siyosiy jihatdan asoslanadi va uning amalga oshirishning yo'nalashlari, shart-sharoitlari belgilab olinadi.

"Politologiya" tarix fani bilan ham yaqin aloqada bo'ladi. Ularning har ikkalasiga xos bo'lgan umumiylik jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarida ro'y beradigan voqea-hodisalarni ularni kelib chiqish davri bilan bog'liq holda o'rganishdan iborat. Masalan, "Politologiya" fanining u yoki bu masalasini o'rganishda o'tmishning tajribalaridan foydalanmaslik mumkin emas.

"Politologiya" sotsiologiya fani bilan ham chambarchas bog'liq. Bu bog'liqlikning asosi ularning siyosatni ijtimoiy muhitga qiladigan ta'sirini o'rganishi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, ko'ramizki, "Politologiya" ijtimoiy fanlar bilan yaqin aloqada bo'ladi va jamiyat hayotining xilma-xil masalalarini o'rganishda ularda ishlab chiqilgan nazariy xulosalarga, amaliy tajribalarga asoslangan xolda ish olib boradi. Ijtimoiy fanlarning har bir jamiyat hayotiga doir masalalarni turli tomondan o'rganganligi uchun ham, biz jamiyat haqida, uning rivojlanishi to'g'risida aniq tushunchaga va amaliy bilimga ega bo'lamiz.

2. Siyosiy qarashlar va ta'limotlarning vujudga kelishi va rivojlanishi

Siyosiy qarashlar va g'oyalar uzoq tarixga ega bo'lib, ularning vujudga kelishi miloddan avvalgi uchinchi ming yilliklarga borib taqaladi. Bunday g'oyalar ilk davlatchilik shakllangan Markaziy Osiyo, Misr, Mesopatamiya, Xitoy, Xindiston keyinchalik Yunoniston va Rim davlati hududlarida vujudga keldi. Dastlabki siyosiy qarashlar diniy an'ana, Huquqiy, siyosiyoy-falsafiy qarashlar shaklida namoyon bo'ldi.

Jumladan diniy an'anaga binoan hokimiyat, boshqarish, jamiyatdagi mavjud tartib qoidalar Ollohning irodasi, inoyati sifatida qaratilgan. Hukumdor esa Ollohning erdagi vakili, deb hisoblangan. Binobarin davlatning kelib chiqishi, mavjud tartib, qoidalar Xudo irodasiga bog'liq, degan tushuncha mavjud edi. Bunday diniy tushunchalar Markaziy Osiyoda zardushtiylik dinida ("Avesto"), qadimgi Misrda va Xindistonda keng tarqalgan.

Sharqda Islom davlatlarida ham dastlab ana shunday tushunchalar mavjud bo'lib, "Xalif", "Amir", "Imom" kabi tushunchalarda hokimiyatning diniy va dunyoviy tushunchalari ifodalangan. Yuqoridagi tushunchalar asosan "dinning himoyachisi" ma'nosini anglatgan.

Dastlabki diniy-siyosiy qarashlar bundan deyarli 3 ming yil avval hozirgi O'zbekiston hududida, Xorazmda yaratilgan yozma manbaa "Avesto"da bayon qilingan. Zarduttilylikning muqaddas kitobi "Avesto"da O'rta Osiyo, Xuroson, Eron va shimoliy Xindistonda vujudga kelgan 26 ta davlat, ularning boshqarilish tartibi, xo'jalik va madaniy hayoti haqida so'z yuritiladi.

"Avesto"dagi "Dax'yu sastar" atamasi davlat darajasiga o'sib chiqqan ma'muriy-siyosiy birlik bo'lib, uni boshqargan poshshox – "Kaviy" nomi bilan yuritilgan. Kaviylar ayni vaqtda bosh ruhoniy – koxinlik vazifasini bajargan. Hukumdor davlatni oqsoqollar kengashida boshqargan. Jamiyat a'zolari 4 guruhga bo'lingan: xarbiylar, koxinlar, chorvadorlar, dehqon va hunarmandlarga ajralgan. Koxinlar va xarbiylar davlatni boshqarish huquqiga ega bo'lgan yuqori martabali guruh sanalgan.

"Avesto"da bayon qilingan zardushtiylik ta'limotiga ko'ra butun olam bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikkita asos – yaxshilik va yomonlik, bunyodkorlik va buzg'unchilik, yovuzlik o'rtasidagi kurash zaminiga qurilgan bo'lib, oqibat natijada bu kurash yomonlik ustidan ezgulikning g'alabasi bilan yakunlanadi.

Yana ezgulik yo'liga qadam qo'ygan odamlar hamisha uchta tamoyilga, ya'ni, ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalga asoslanmogi kerak, deb uqtiriladi.

"Avesto"da olov, er, suv va havo jamiki mavjudodning bosh intihosi, deb qaralgan. Ularni iflos qilish eng og'ir gunoh hisoblangan. Bu qoidani buzgan kishi 400 qamchi jaosiga mahkum etilgan.

Demak yurtning tinch-osoyshtaligini saqlash, xalqning farovonligini ta'minlash, hayot manbai bo'lgan ekologik muhit musofoligi davlat hokimiyatining muqaddas burchidir, deb qaralgan.

"Avesto" kitobida bayon qilinganyuqoridagi siyosiy-falsafiy g'oyalar hozirgi kunimizda ham dolzarb vazifalardan sanaladi.

Davlat va huquq masalalariga inson manfaati nuqtai nazaridan yondorshish зардуштийлик ta'limotida, buddizmda va Xitoy mutafakkiri Konfutsiy (m.a. 522-479 y), antik Yunon olimi Sokrat (m.a. 427-347 y) va Aristotel (m.a. 384-322 y), rim faylasufi Sitseron (m.a. 106-43 y) asarlaridagi siyosiy qarashlarida bayon qilingan.

Konfutsiyning asosiy ta'limoti – jamiyatni ilg'or ahloqiy normalar asosida boshqarilishi ta'limotidir. U jamiyat taraqqiyotida odamlar, shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, deb ta'lim beradi.

Konfutsiy ta'limotida insonparvarlik, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolat g'oyalari ustuvor bo'lganligi bois Sharqda hozir ham alohida ahamiyatga egadir.

Sokratning siyosiy qarashlari ham insoniy ezgulik, donishmandlik, ma'naviy-axloqiy poklik, ijtimoiy adolat g'oyalari targ'ib qilinadi. U davlatni "eng yaxshi fazilatlariga ega bo'lgan kishilar boshqarmog'i" kerak, deb ta'lim beradi. Sokratning shogirdi Platon esa bu fikrni

rivojlantirib, o'zining "Davlat", "Siyosatchi", "Qonunlar" va boshqa asarlarida ideal davlat ta'rifini berar ekan davlatni boshqarishning aristokratiya shaklini oqlaydi.

Aristotel ham o'zining "Siyosat", "Etika", "Ritorika" nomli asarlarida siyosiy-falsafiy ta'limotiga ulkan xissa qo'shgan odamlardandir. Uning asarlaridagi siyosiy g'oyalar tubanligicha:

- Olimning ta'kidlashicha oldin oila, shundan so'ng qishloq va shahar jamoasi, ularning mantiqiy natijasi sifatida davlat vujudga keladi. Davlat ijtimoiy munosabatlarining oliy shaklidir.

- Davlatning pirovard maqsadi hamma fuqarolarga "farovonlik, baxtli va go'zal hayot" yaratishdir.

- Fuqarolar uchun eng oqil hayotga yoshlikda harbiy xizmatni o'tash, katta yoshda esa siyosiy faoliyat orqali erishiladi.

- Jamiyatda o'ziga to'q o'rta tabaqalar ko'p bo'lsa boy va kambag'allar o'rtasidagi munosabatlar ma'qul muvozanatga keltiriladi.

Davlatning shakli kim tomonidan (yakka kishi, ozchilik yoki ko'pchilik) yoki qanday maqsadda (umum manfaat yoki shaxsiy manfaatga) ko'ra amalga oshiriladi. Aristotel davlat shaklini to'g'ri yoki noto'g'ri shaklga ajratadi. To'g'ri shakl – monorxiya, aristokratiya, politiya. Noto'g'ri shakl – tiraniya, oligarxiya, demokratiya. Ularning mohiyati va farqlari tahlil etiladi.

O'rta Osiyoda uyg'onish davrida (IX-XII asrlar) davlat qurilishi, yirik markazlashgan davlatni vujudga keltirish va boshqarish masalasida yanada ilg'or ijtimoiy-siyosiy fikrlar yaratiladi. Bunday fikrlar Firdavsiyning "Shohnoma", Abu Nasr Farobiy (873-950 y) ning "Fozil odamlar shahri", Ibn Sino (980-1037 y) ning "Al qonun", "Donishnoma", Beruniyning (973-1048 y) ning "O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklari", "Hindiston", "Qonuni Ma'sudiy" va boshqa asarlarida bayon etilgan.

Yana Nizomulmuluk (1018-1029 y) ning "Siyosatnoma", Amur Temur (1336-1405 y) ning "temur tuzuklari", Alisher Navoiy (1441-1501 y) ning "Saddi Iskandariy", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" va boshqa asarlarda mujassam etilgan.

Jumladan farabbiy o'zining "Shaharlar ustidan siyosat yurgazish" va "Fozil odamlar shahri" asrida siyosatga alohida ilm sifatida qaralgan, davlat hokimiyati, uning shakli, boshqarish tartibi, vazifalari davlat boshliqlarining 12 ta xislat-fazilatlariga haqida fikr yuritiladi. Farabbiy avvalgi hukmdor o'rniga kelgan keyingi hukmdorda yuqoridagi fazilatlardan tashqari yana 6 ta fazilat bo'lishligini alohida qayd etadi.

Davlatning vujudga kelishi haqida gapirib, Farabbiy – davlat insonlarni bir-biriga dushmanligidan emas, yashap uchun ularning o'zaro ittifoqda, aloqa va munosabatda bo'lish zaruriyatidan vujudga keladi. Davlatning asosiy vazifasi fuqarolar turmushini yaxshilash, tinchlik va osoyishtalikni barqarorlashtirishdan iborat deb ta'kidlanadi. Farabbiy shahar – davlatlarni ikki guruhga – fozillar va johillar shahri davlatlariga ajratadi.

Fozil kishilar davlatda farovonlik, tinchlik, asoyishtalik, adolat hukmron bo'ladi. Johil kishilar davlatida esa aksincha nopoklik, razolat, amalparastlik, shuhratparastlik, molparastlik va beqaror hukmronlik qiladi.

Al-Beruniy va ibn Sino asarlarida ham davlat, huquq, boshqarish uslubi, ijtimoiy qatlamlar haqida ilk bor g'oyalar bayon qilingan.

Abu Ali Xasan Alii Tusiy – Nizomulmulukning "Siyosatnoma" asarida ham davlat boshqaruviga aloqador hamma masalalar – podsho va amaldorlar, boshqarish tartibi, usuli, qonun-qoidalari, qozixona ishlari, hq'arbiylar, soliq siyosati, elchilik aloqalari. Taqdirlash va jazolash choralari o'z ifodasini topgan, amaldorlarni tayinlashda ularning insofliaql-farosatli, dono, bilimdon, tajribali va boshqa fazilatlariga alohida e'tibor qilish ko'rsatiladi.

"Siyosatnoma" asari sharqda hukmdorlar qo'lidastur amal bo'lib keldi, undagi ko'pgina g'oyalar hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Asarning o'zbek tilidagi qisqartirilgan nashri 1997 yilda ko'p nusxada chop etildi.

Amur Temur (1336-1405 y) buyuk davlat arbobi, sarkarda, jahongir va mutafakkir sifatida mashhur. U O'rta Osiyo mo'g'ullari istebdodidan holos qildi va markazlashgan qudratli davlatga

asos soldi. Uning “Temur tuzuklari” asarida davlat boshqaruvining tartiblari, qonun-qoidalari ko’rsatib berilgan. Davlatni boshqarishda 12 ta qoidaga amal qilganligi, boshqarishda 12 toifaga suyanganligi, vazir, amir, bek va boshqa amaldorlarni tayinlashda 4 ta talaba alohida e’tibor berganligi qayd etiladi. Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan davlat boshqaruvining muhim qoidalari hozir ham o’z ahamiyatini saqlamoqda. “Temur tuzuklari” asari 1991 yilda o’zbek tiliga o’girilib ko’p nusxada nashr qilindi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Sharqda Xuroson, Markaziy osiyoda qadim va ilk o’rta asrlar davrida siyosat va davlatni boshqarish san’ati ilm darajasiga ko’tarilganki, buni bobokolonlarimizdan bizgacha etib kelgan bebaho asarlar ham tasdiqlanmoqda.

XVII-XVIII asrlarda Evropada – Angliya, Frantsiya, Germaniya, Italiya hamda Amerikadagi siyosat, davlat va jamiyat qurilishi haqidagi siyosiy qarashlar Amerikadagi siyosat, davlat va jamiyat qurilishi haqidagi siyosiy qarashlar (N.Makiavelli, J.Lokk, Sharl Lui Monteske, J.J.Russo va boshqalar) “Politologiya” darsligida berilgan. Ushbu materialdan foydalanish tavsiya etiladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Sharqda vujudga kelgan siyosiy qarashlar mustamlakachilik asoratiga qarshi milliy ozodlik kurashi g’oyalari bilan bevosita aloqador. Masalan, Hindistonda ozodlik va mustaqillik g’oyalari buyuk mutafakkir M.Gandi (1869-1984 y) va I.Ikbol (1877-1938 y) tomonidan targ’ib qilindi. Ular o’z asarlari va nuqtalarida Sharq hulqlarini mustaqillikka, ozodlik va hamjihatlilikka dahvat qildilar.

O’sha davrda Turkistonda vujudga kelgan ana shunday ilg’or ijtimoiy harakat “Jadidchilik” harakati nomi bilan mashhur bo’ldi. Bu harakat namoyondalari Turkistonni chor imperiyasi asoratidan qutqazish, mustaqil davlatchilikni qayta tiklash, iqtisodiy va madaniy qaloqlikdan mamlakatni chiqarib, bunga mahrifiy yo’l bilan erishish g’oyalari bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda ular shag’ar va qishloqlarda yangi usul maktablari ochib, kitob, jurnal va gazetalar nashr qilib, milliy teatrlar yaratib o’shzlarining ilg’or g’oyalarini xalq orasida targ’ib qildilar. O’lkada ma’rifatparvarlik harakatini keng yoyilishida matbuotning xizmati katta bo’ldi. 1906 yildan boshlab nashr qilingan “Taraqqiy”. “Xurshid”, 1907-1917 yillarda nashr qilingan “Shuhrat”. “Samarqand”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Turkiston”, Hurriyat, “Turon”, “Ulug’ Turkiston” gazetalari aholining siyosiy ongini o’sishida muhim rol o’ynaydi.

Bu ijtimoiy-siyosiy harakat keyinchalik Buxoro va Xiva xonliklarida keng tarqalib. “Yosh Xivaliklar” va “Yosh Buxoroliklar” nomi bilan mashhur bo’ldi. Mahmudxo’ja Bexbudiy (1879-1919 y), Munavvar qori Abdurashidxon (1878-1931 y), Abdulla Avloniy (1875-1934 y), Mustaf Cho’qiev (1890-1941 y), A.Qodiriy (1894-1938 y), Abdurauf Fitrat (1886-1938 y), A.Cho’lpon (1897-1938 y), Boboohun Salimov (1874-1929 y), Polvon Niyoz Yusupov (1863-1936 y), Fayzulla Xhjaev (1696-1938 y), Axmad Zaki Validiy To’g’on (1890-1970 y) jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan edi.

Rossiyada 1917 yil fevral demokratik revalyutsiyasi arafasida Turkistonda jadidchilik etuk siyosiy harakat shaklini oldi. Ular konstitutsion monorxiya talabini qo’yidilar. Fevral revolyutsiyasidan keyin esa keng qamrovli siyosiy talablar bilan chiqdilar. Jumladan ular o’lkani boshqarishni isloh qilishni, Turkistonga muxtoriyat berishni, Davlat Dumasida o’lka vakillari sonini oshirishni, mahalliy aholi huquqlarini kengaytirishni, milliy matbuot erkinligini talab qildilar. Bu vaqtga kelib o’lkada tub aholining siyosiy ongida va kurashida jiddiy o’zgarishlar yuzaga keldiki, natijada shu o’zgarishlar bois “Sho’roi islomiya” va “Sho’roi uloma”, “Turon” kabi siyosiy partiya va tashkilotlari vujudga keldi. “Sho’roi islomiya”ning rahbari Munavvar qori Abdurashidov, Mustaf Chuqaeov va Bexbudiyar edi.

Biroq Turkistonda oktyabr davlat to’ntarilishidan keyin sobiq Sovet tizimi davrida jadidlarga o’z maqsadlariga erishish imkoni berilmadi. Ularning 1919 yilda tuzgan Qo’qon muhtoriyati hukumati tarqatildi, o’zlari ta’qib ostiga olindi, ularga “Panturkist”, “Panislamist” tamg’asi bosildi. Jadidlarning ko’pchiligi 1929, 1937-1938 yillarda sovetlar tomonidan ommaviy qatag’on qilindi, ayrim qismi istiqloqlilik harakatiga qo’shilib, g’oyaviy rahnomlik qildi yoki horijga o’tib ketishga majbur bo’ldilar. Umuman aytganda XX asr boshlarida Turkistonda keng

yoyilgan jadidchilik harakati faqat ma'rifatchilik harakati bo'lmay, ayni paytda u chor rossiyasi va so'ngra sobiq sovetlar mustamlakachiligiga qarshi xalqning ozodlik va mustaqillik kurashining o'ziga xos ko'rinishi ham edi. Mustaqillik tufayli Turkiston ozodligi yo'lida jonini fido qilgan vatanparvarlar nomlari qayta tiklandi.

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib Evropa kapitalizm tez taraqqiy qiladi, burjua demokratiyasi keng quloch yozadi. Shu bilan jamiyat oldida turgan ko'pgina muammolarni hal qilishda politologiyaga e'tibor oshadi, yangich a siyosiy qarashlar vujudga keladi. Natijada AQSh va Frantsiyada politologiya mustaqil fan sifatida shakllanadi. XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib AQSh va Frantsiya universitetlari qoshida maxsus siyosiy, ilmiy tadqiqot markazlari (maktablari) vujudga keladi. Masalan AQSh ning Kolumbiya, Kornell, Garvard, Grinston universitetlari qoshida shunday markazlar shakllanadi. 1914 yilda AQSh da federal darajada yirik ilmiy markaz tashkil etilgan. A.Bentli, V.Vilg'son, F.Gudnau, G.Ford, A.Xartli shu maktabning yirik vakillari bo'lib, politologiyaga doir qator asarlar yaratiladi. A.Bentlining "Boshqarish jarayonlari" (1908 y), U.Limpaning "Jamoatchilik fikri" (1922 y), Ch.Merriamning "Ovoz bermaslik sabablari va nazorat usullari" (1924 y) shular jumlasidandir.

Urushdan keyingi yillarda AQSh da politologiyaga e'tibor yanada kuchaydi. Ch.Merriam (1874-1953 y), G.Lassuel (1902-1973 y), G.Morgentou (1904-1980 y), Kissenjer va Bzejinskiy kabi politologlarning asarlari e'tiborga loyiq. 70 yillarda Bzejinskiyning "XX asrda komunizmning qaror topishi va inqirozi" asari ko'p shov-shuvlarga sabab bo'lgan edi.

Hozirgi davrda AQSh politologlari tubandagi yo'nalishlarida tadqiqot olib boryapdi:

1. Amerika boshqaruvi va siyosati.
2. Qiyosiy siyosat
3. Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati.
4. Sisat nazariyasi va falsafasi.
5. Ijtimoiy boshqaruv va siyosat

Amerika politologlari asarlarida boshqaruv usuli va Amerika demokratiyasi eng ilg'or usul sifatida talqin etiladi. Kissenjer va Yuzejinskiylar uzoq vaqt AQSh Prezidenti Reygon, Bush va boshqalarning siyosiy va xalqaro masalalarda yaqin maslahatchisi bo'ldi.

Frantsiyadagi politologiya fanining yirik vakili A.Zigfrid, M.Shevalg', M.Reymon Aron (1905-1983 y) asarlari – "Inson tiranlariga qarshi", "Buyuk parchalanish", "Tinchlik va millatlar o'rtasida urush", "Demokratiya va totalitarizm", M.Dyuverje asarlari – "Siyosiy fanlar metodlari", "Siyosiy rejimlar", Diktatura to'g'risida , "Siyosatga kirish" va boshqalar. Yuqoridagi asarlarda siyosiy fanning nazariy va amaliy masalalari – demokratiya, siyosiy hokimiyat, siyosiy partiyalar, tashqi siyosat muammolari tahlil etilgan.

Demak yuqoridagilardan ma'lumki, xorijda siyosiy fanlarga e'tibor kuchli, ularning nazariy xulosalaridan yirik davlat arboblari keng foydalanib kelmoqda.

3. Siyosiy jarayon. siyosiy tizim va demokratiya

Siyosiy jarayon tushunchasi siyosiy tizim tushunchasi bilan bevosita bog'liq. Siyosiy jarayon o'zida siyosiy tizimda yuz beradigan o'zgarishlarni, uning tarkibiy qismidagi aloqalarni aks ettiradi. Siyosiy jarayon tushunchasi siyosiy munosabatlar va xodisalarining o'zaro ichki bog'liqlik zanjiri, siyosat sub'ektlarining hokimiyatga o'zaro munosabat birligini anglatadi. Boshqacha aytganda siyosiy jarayon turli siyosiy institutlar, siyosiy partiya va tashkilotlar, turli manfaatdor guruhlar hamda individlar munosabati va ko'p qirrali faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. XX asrga kelib siyosat maydonida yuz bergan o'zgarishlar siyosiy jarayonga ham ta'sir qilganligini ko'ramiz.

Hozirgi davrda siyosiy jarayon tubandagi yo'nalishlardan namoyon bo'lyapdi.

1. Siyosiy tizim tarkibini shakllantirish yoki takomillashtirish. Bunda mavjud siyosiy tizimga mos tashkilotlar tuzatiladi va ularga mos munosabatlar qaror topadi.

2. Mavjud siyosiy tizimni qo'llab-quvvatlash, uning barqarorligini ta'minlash yoki uning zamon talabiga mos isloh qilish shaklida.

3. Siyosiy qarorlar qabul qilish va ijro etish ko'rinishida namoyon bo'lyapdi.

Siyosiy jarayon siyosiy hokimiyatda yuz beradigan o'zgarishlar bilan aloqador bo'lganligi bois u ham uch holatda sodir bo'ladi.

1. Turg'unlik holatida. Bunda siyosat sub'ektlari faoliyatida avvalgi tizim va an'analarga sodiqlik, konservativ munosabat.

2. Rivojlanish tartibi. Siyosiy tizimda ichki va xalqaro talablarga muvofiq o'zgarishlar yuzaga keladi.

3. Inqirozli tartib. Siyosiy hokimiyat mavqei pasayadi, qabul qilingan qarorlar bajarilmaydi.

Demokratik o'zgarishlar yuz berayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham islohotlar natijasida ijtimoiy o'zgarishlar tez kechadi. Bunday sharoitda siyosiy jarayonda siyosat sub'ektlari o'rtasida barqarorlikni ta'minlash alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

O'tish davrining boshdan kechirayotgan jamiyatlarda siyosiy jarayon siyosiy tizim muvozanatini ta'minlash uslubiga ko'ra uch ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1. **Texnokratik turi.** Bu jarayon ishtirokchilari mavjud qonunchilik va an'analarga doirasida faoliyat ko'rsatadi. Bu jarayon Angliyaga xos, an'analarga hurmat bilan qaratilganligidan bu mamlakatda barqarorlik ustuvor.

2. **Ideokratik turi.** Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan xilma-xil jamiyat umummilliy g'oya asosida birlashadi.

3. **Xarizmatik turi.** Bu turda sharq madaniyatiga xos, siyosiy etakchilar roliga yuqori baho beiladi.

Siyosiy jarayonda siyosiy partiya va jamoat tashkilotlari a'zolari ham faol ishtirok etadi, yana ayrim individlar, ijtimoiy guruh va qatlamlar ham qatnashadi. Siyosiy ishtirok mahalliy, mintaqaviy, umumdavlat va xalqaro siyosat darajasida bo'ladi.

Siyosiy ishtirok shakllari.

- Axborot qabul qilish va uzatish.
- Siyosat va davlat arboblari bilan muloqot.
- Saylov kompaniyalarida ishtirok.
- Namoyish va ommaviy harakatlarda qatnashish.
- Boshqaruv va o'z-o'zini boshqarishda qatnashish.
- Siyosiy partiya va jamoat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Siyosiy ishtirokning asosiy vazifasi.

- Turli manfaat va talablarni amalga oshirish.
- Boshqaruv apparati hodimlarini tanlash va faoliyatini muvofiqlashtirish.

- Boshqaruvga doir qarorlar qabul qilish, siyosat yo'nalishlarini belgilash.
- Ixtiloflarni bartaraf etish, byurokratiyaga qarshi kurash.

Fuqarolarning siyosiy ishtirok darajasi jamiyat siyosiy tizimiga va siyosiy madaniyatga bog'liq. Demokratik va huquqiy davlatlarda buning uchun qulay sharoit yaratiladi. Siyosiy ishtirokda fuqarolarning siyosiy-ruhiy holati – manfaatdorligi, siyosatga qiziqishi, muayyan siyosiy oqimga mansubligi muhim rol o'ynaydi. Siyosiy-ruhiy loqaydlik diniy ekstramizmga qo'l keladi. **Fuqarolarning siyosiy ishtiroki 2 xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:**

1. Mikrosiyosat - shaxs va guruhlarining kundalik turmush tashvishlari darajasida yuzaga keladi.

2. makroiqtisodiyot darajasida – ya'ni jahon miqyosida, mamlakatlar darajasida amalga oshadi. Bu barcha insonlarga dahldor bo'lib. Unda jahonning nufuzli institutlari, xalqaro tashkilotlari qatnashadi.

Mustaqil O'zbekistonda siyosiy jarayon hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi muloqot asosiga qurilgan bo'lib, jamiyat o'z talablarini hokimiyatga vakillik organlari tomonidan etkaziladi. Vakillik organlari – siyosiy partiya, nodavlat tashkilotlari, OAV dan iborat. Respublikada fuqaro-jamiyat-davlat tizimi qaror topgan. Siyosiy jarayonda jamiyatni jipslashtirishda milliy istiqlool g'oyasi muhim rol o'ynaydi.

Jamiyatning siyosiy tizimi – siyosiy hokimiyatni shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi, birinchi navbatda davlat hokimiyati, siyosiy va ijtimoiy tashkilotlar hamda munosabatlar yig'indisidir. Siyosiy tizim bu jamiyatni muayyan maqsad va vazifalarga safarbar etuvchi mexanizmdir. Shuningdek siyosiy tizim orqali jamiyatdagi siyosiy hayot ishtirokchilarining turli manfaatlari yaxlitlashtiriladi va siyosiy barqarorlik vujudga keltiriladi. Binobari, siyosiy tizim boshqa kichik tizimlarga nisbatan ustuvor bo'lishi bilan, uning qarorlari butun jamiyat uchun majburiydir.

Siyosiy tizimning asosiy elementlari quyidagilar:

1. **Tashkiliy tizim** – bu davlat, siyosiy partiya, ijtimoiy tashkilotlar va harakatlarni o'z ichiga oladi.

2. **Madaniy-mafkuraviy tizim** - bunga siyosiy madaniyat, siyosiy ong, mafkura, jamoatchilik fikri kiradi.

3. **Me'yoriy (norma) tizim** - bu siyosiy-huquqiy, tashkiliy, ahloqiy va boshqa me'yorlarni o'z ichiga oladi.

4. **Axborot kommunikatsiya tizimi** – bu o'z ichiga AOV ni kommunikatsiyalarini oladi.

Shu ta'kidlash lozimki, siyosiy tizim tarkibiga kiruvchi yuqoridagi kichik tizimlar ma'lum siyosiy me'yorga (norma)ga tayanib faoliyat ko'rsatadilar. Siyosiy me'yorsiz ularning faoliyati uyg'un va barqaror bo'lmaydi. Siyosiy me'yor asosiy qonun – Konstitutsiyada belgilab beriladi. Siyosiy partiya va tashkilotlar ana shu normalarga rioya qilmasalar, ularning faoliyati ta'qiqlanadi. AOV – matbuot, radio va televidenieler siyosiy jarayonni xolisona aks ettiradi va xalqini uning ijrosini ta'minlashga safarbar etadi.

Siyosiy tizimning yuqoridagi kichik tizimlari mustaqil faoliyat ko'rsatadilar, ayni paytda ular bir-biriga bog'liq. Ularning o'zaro uyg'un faoliyati siyosiy tizim mexanizmlarini normal ishlashini ta'minlaydi, jamiyatda siyosiy barqarorlikni qaror toptiradi.

Davlat siyosiy tizim o'zagini tashkil etadi, qolgan boshqa tashkilotlar uning faoliyati bilan aloqador. U bu sohada tanho huquqqa ega. Uning yana bir belgisi suverenlikdir.

Davlat boshqaruv jilovini o'z qo'lga olgandagina jamiyatda barqarorlik saqlanadi. Ayniqsa bu o'tish davrida juda muhimdir. Aks xolda jamiyatda ichki kurash, mansab talashuv va siyosiy ixtilof kuchayadi.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqi davlat va saltanatni boshqarishda boy tajribaga ega bo'lgan, namuna bo'lgan. Xorazmshoxlar, G'aznaviylar, Temuriylarning boshqarish usullari bunga misol bo'la oladi. Mustaqillikka erishgan O'zbekistonda ham boshqarish tizimi ana shu boy tajriba va an'analarga tayanadi.

Umuman aytshganda davlat, shu jumladan O'zbekiston davlati ham o'z hududi doirasida ichki va tashqi siyosatni yuritadi, qonunlar chiqaradi, ularni ijrosini ta'minlaydi, odil sudni amalga oshiradi.

Siyosiy tizimda davlat yuqoridagidan tashqari yana tubandagi ichki. Tashqi va xalqaro funktsiyalarni bajaradi.

1. **Ichki funktsiya** – xo'jalik, tashkilotlar, madaniy-tarbiyaviy sohalaridan iborat. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda Predzident Islom Karimov boshchiligidagi yangi siyosiy tizim, demokratik huquqiy davlat tuzilmalari yaratildi. Bu davlat respublikada amalga oshirilayotgan tub islohotlarni tashkilotchisi va tashabbuskori bo'lyapdi.

Milliy istiqlool g'oyamiz ham Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq faravonligiga qaratilgandir.

2. **Tashqi funktsiya** – Davlatlararo munosabatlarni turli sohalarda yaxshilashga qaratilgan.

3. **Xalqaro funktsiya** – xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar faoliyatini xalqaro umumbashariy muammolarni hal qilishga qaratilgandir.

Sivilizatsiyalashgan dunyoda davlat hokimiyati tubandagi 3 sohadan iborat:

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat.

2. Ijro etuvchi hokimiyat.

3. Sud hokimiyati shaklida namoyon bo'ladi.

Yana madaniy dunyoda OAV ni 4-hokimiyat darajasiga etkazish tendentsiyasi ham mavjud.

Yuqoridagi hokimiyat shakllari demokratik jamiyat sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsatadilar. Davlat va inson o'rtasidagi munosabatlardagi fuqarolarning siyosiy huquqlari muhim ahamiyatga ega. Siyosiy huquqiy davlat hokimiyatini shakllantirish, huquqiy demokratik davlatni barpo etish vaboshqarishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasining 32-moddasiga muvofiq fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtiroki ikki shaklda – bevosita va o'z vakillari orqali hususan o'z-o'zini boshqarish va referendumlar o'tkazish shaklida amalga oshiriladi. Shahar, qishloq va mahallalarda o'z-o'zini boshqarish 2,5 yilga tuziladi. 1992 yilda Konstitutsiya loyihasi, 1997 yilda maktab islohoti qonuni, 2002 yilda oliy majlisni 2 palatali qilish qonuni kabi masalalar umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Referendum fuqarolarning ijtimoiy aktivligini oshiradi. Siyosiy-huquqiy ongini shakllantirishga yordam beradi.

Yana respublika fuqarolari davlat va jamoat tashkilotlariga saylangan o'z vakillari orqali boshqarishda ishtirok etadi, hohish-irodasini erkin ifoda etadi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov fuqarolarning boshqaruvidagi eng oliy darajadagi vakili bo'lib, u Davlat ijrochi hokimiyati boshlig'idir.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq Oliy Majlisda 250, Qoraqolpog'iston Juqori Kengisida 75, viloyatlarda va Toshkent shahrida 60, shahar va tuman kengashlarida 30tadan saylangan xalq vakillari xalq nomidan davlat boshqaruvida ishtirok etmoqda.

2002 yilda o'tkazilgan referendumga muvofiq Respublika Oliy Majlisi 2 palatali tizimga o'tadi. Oliy Majlisning quyi palatasi-qonunchilik palatasi, yuqori palatasi - Senat deb yuritiladi. Senat hududiy vakillik palatasi bo'lib, a'zolari Senator deb nomlanadi. Quyi palatada 120 vakil doimiy ishlash huquqiga ega bo'ladi.

Respublikada ko'ppartiyaviylik tizimi ham qaror topdi. Siyosiy tizimda davlat va siyosiy partiyalar bilan birga jamoat tashkilotlari ham faoliyat ko'rsatyapdi. Jamoat tashkilotlari kasaba uyushmalari, yoshlar, xotin-qizlar, fahriylar, ijodiy, madaniy va boshqa uyushmalardan iborat.

Turli ijtimoiy guruhlar, ayniqsa millatlar aro munosabatlar ham siyosiy tizim asosini tashkil etadi. Siyosiy munosabatlar siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Siyosiy munosabatlar esa siyosiy tamoyil va normalar orqali tartibga solib turiladi. Demak siyosiy munosabat va me'yorlar ham siyosiy tizimning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Shuningdek jamiyat tizimida muayyan siyosiy kuchlar, siyosiy partiyalar va xalqning siyosiy onglilik darajasi, siyosiy mafkura va madaniyat ham alohida ahamiyat kasb etadi. Siyosiy ong, siyosiy madaniyat va mafkura siyosiy tizimda siyosiy kuchlarni birlashtirish,

barqarorlashtirishga ijobiy yoki aksincha ta'sir ko'rsatadi. Zero u siyosiy qarorlar ishlab chiqish hamda ustuvor yo'nalishni belgilashda muhim rol o'ynaydi. Darhaqiqat milliy istiqloq mafkurasi O'zbekiston jamiyat barqarorligini ta'minlashning eng muhim vositasi bo'lib qoldi.

Siyosiy tizimning yana bir zaruriy jihatida keng jamoatchilik fikrini hisobga olishdir. Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida amalga oshirilayotgan tadbir, qabul qilinayotgan qarorlarda jamoatchilik fikri to'la hisobga olinmoqda.

Jamiyatning siyosiy tizimi doimo takomillashib borishni talab etadi. Hozirgi paytda O'zbekistonda Oliy Majlisning 2-chaqiriq 9-sessiyasi (2002 yil 29 avgust) belgilab bergan asosiy ustuvor yo'nalishlariga amal qilinmoqda. "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" tamoyili sari rivojlanib bormoqda.

Hozirgi paytda jahonning asosiy rivojlanish tendentsiyasi demokratiya yo'nalishiga tomon intilmoqda. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotini demokratiyalashuvi jamiyatni tanazzuldan xolis qilish hada barqarorlik shartiga aylanib borayotganligi ma'lum. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra, hozircha jahon davlatlaridan atiga 40 davlatgina to'la demokratik davlat, deb tan olishga asos bo'la oladi.

Amerikalik olim D.Xeldning "Demokratiya modellari" (1987 y) asrida ta'kidlanishicha demokratiyaning o'nlab modeli, tushunchalari mavjud.

Demokratiya – xalq hokimiyati yoki boshqaruvda xalq ishtiroki ma'nosini anglatadi. Bu tushuncha antik Yunonistonda vujudga kelgan bo'lib "demos" – xalq, "kratos" – hokimiyat, boshqaruv ma'nosida. Hozirgi kunda u keng ma'noda – erkinlik, fuqarolik, xalq suveriniteti milliy davlat g'oyalari ma'nosida ishlatiladi.

Hozirgi kunda demokratiyaning uchta asosiy modeli ya'ni liberial demokratiya, identital va plyuralistik demokratiya modellari mavjud.

1. Liberal demokratiya - shaxsni hokimiyat manai deb biladi. Fuqarolarning siyosiy teng huquqliligini himoya qiladi. Biroq liberal demokratiyada cheklanganlik mavjud, fuqarolarni ijtimoiy jihatdan himoya qila olmaydi. Ijtimoiy-siyosiy tengsizlikni bartaraf eta olmaydi. Masalan. AQShda XX asr o'rtalarigacha Murkiy va boshqa senzlar saqlandi.

2. Idintitar – jamoaviy demokratiya modeli – bu model xalqni jamoa sifatida qaraydi, yagona idora va mafkura hukmronligi, ihtilof va siyosiy muholifatning yo'qligi, inson huquqlarini cheklanganligini, amaldagi hokimiyatning mutloq-totalitar xususiyatga ega ekanligi bilan ajraladi. Bunday demokratiyaning targ'ib etish totaritarizmga olib keladi.

3. Plyuralistik demokratiya modeli – bu model liberal demokratiya qoidalarini meros qilib oladi. Bular konstitutsionalizm, hokimiyat bo'linishi, shaxsiy erkinlik, inson huquqlari kabilarni o'z ichiga oladi.

Bu model ko'pchilik mamlakatlarda tan olingan zamonaviy demokratiya shaklidirki, unda turli ijtimoiy guruhlar mafaati aks etadi, raqobatli jarayonlar murosaga keltiriladi. Lekin Plyuralistik demokratiyada ham cheklanganligi bor. Bunday demokratiyali ham fuqarolik turmush sharoitida ijtimoiy tengsizlik yuqori darajada. Lekin shunga qaramay xalqning boshqarishda ishtiroki jihatidan hozir real hayotga yaqinroq modeldir.

Bulardan tashqari yana reprezativ (vakolatli) va partitsipator (siyosiy ishtirok) demokratiya kontseptsialari ham mavjud.

Plyuralistik demokratiya modeli. Bu model liberal demokratiya qoidalarini meros o'lib oladi. Bular konstitutsionalizm, hokimiyat bo'linishi, shaxsiy erkinlik, inson huquqlari kabilarni o'z ichiga oladi.

Bu model ko'pchilik mamlakatlarda tan olingan zamonaviy demokratiya shaklidirki, unda turli ijtimoiy guruhlar manfaati aks etadi, raqobatli jarayonlar murosaga keltiriladi. Lekin Plyuralistik demokratiyada ham cheklanganlik bor. Bunday demokratiyali mamlakatlarda ham fuqarolar turmush sharoitida ijtimoiy tengsizlik yuqori darajada. Lekin shunga qaramay bu model xalqning boshqarishda ishtiroki jihatidan hozir real hayotga yaqinroq modeldir.

Bulardan tashqari yana reprezativ (vakolatli) va tartitsipator (siyosiy ishtirok) demokratiya kontseptsialari ham mavjud.

Reprezentiv demokratiya – xalq oldida ma'sul, malakali boshqaruv g'oyasiga asoslanadi. Partitsipatorlik demokratiya - bu demokratiyaning xalq hokimiyati sifatidagi idealiga to'la mos keladi. Bunday boshqaruvda ko'p odamlar ishtiroki ta'minlanadi, boshqaruvning samaradorligi ortadi, fuqarolarning siyosiy jarayonda faol ishtiroki mansabdor shaxslar samarali nazoratni ta'minlaydi, hokimiyatni suiste'mol qilish. Amaldorlarning byurokratlashuvini oldini oladi.

AQSh da liberal demokratiya tizimi o'rnatilgan. Bunday tartib Frantsiyada XIX asr oxirida, Italiya va Germaniyada ikkinchi jahon urushidan keyin, Ispaniya va Portugaliyada esa XX asr 70 yillar o'rtalarida qaror topdi.

Sharqda ham demokratiya xalqning mentaliteti, an'analarga mos ravishda mavjud bo'lgan. U ko'pgina guruh va jamoa manfaati va huquqlari bilan uyg'un qo'shilgan.

O'rta Osiyoda qadimdan boshqarishda jamoatchilikning erkin fikri alohida hisobga olingan. Boshqarishda hukmdorlar jamoatchilik fikri, ijtimoiy guruh maslahatini, murosa, muruvvat, bag'rikenglik, sabr-toqatni qonun-qoida hisoblaganlar. Afsuski sobiq Ittifoq davrida ushbu qoidalar unutiladi, ma'muriy buyruqbozlik tizimi qaror topdi. Mustaqil O'zbekistonda endilikda milliy davlatchilik an'analari qaytadan tiklanmoqda.